

## FAVQULODDA VAZIYATLARDA FUQARO MUHOFAZASINING VAZIFALARI VA AHAMIYATI

**G.A. Boyqulova**

TIQXMMI MTU ning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti

### ANNOTATSIYA

Aholini, favqulodda vaziyatlar kuch va vositalarini favqulodda vaziyatlarga tayyorlash, fuqarolarni fuqaro muhofazasi buyicha o'qitish - aholini dushmanning zamonaviy qurollari ta'siridan, tabiiy ofatlar, avariya va fojia oqibatlaridan himoyalashga tayyorlashning asosiy tadbirlari sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda insonlarning harakatlanishi bo'yicha mashg'ulotlarni o'tkazish boshqa hududlarda o'tkazilishi bilan bir qatorda oliy ta'lim, maktab va maktabgacha ta'lim muassasalarida ham ko'proq tashkil etish hozirgi kunning muhim vazifalaridan biridir.

### KIRISH

Respublikamiz mustaqilligining dastlabki yillaridan boshlab barcha sohalarda amalga oshirilgan islohotlar qatorida Respublika milliy xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan mustaqil muhofaza siyosati yaratildi va uni amalga oshirish boshlandi. Aholini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, favqulodda vaziyatlarning ta'sirini va talofatini kamaytirish muhim omillaridan biri bu aholini favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakatlanishga o'rgatish va maqsadli tayyorlashdan iboratdir.

Yurtboshimiz ta'biri bilan aytganda biz o'z haq-huquqlarimizni taniydigan, o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, atrofda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondashadigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan erkin, har jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalashimiz kerak.

Respublikamiz aholisini favqulodda vaziyatlarga tayyorlash masalalari bir qator qonun va qonun osti hujjatlarida o'z ifodasini topgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining 2021yil 12 dekabdagi 737-sonli "Favqulodda holat to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi. Ushbu Konstitutsiyaviy Qonunning maqsadi O'zbekiston Respublikasining butun hududida yoki ayrim joylarida favqulodda holatni joriy etish shartlari va tartibini belgilashdan iborat. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida" gi Qonunning 18-moddasida belgilanganidek "Umumta'lim maktablari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari hamda oliy o'quv

yurtlarida, ishlab chiqarish va turar joylarda aholini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga o'rgatish umumiy va majburiydir"[1].

Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishning qonuniy asosini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari va Favqulodda vaziyatlar vazirining ko'rsatma va boshqa tegishli me'yoriy hujjatlari tashkil etadi. Aholini, favqulodda vaziyatlar kuch va vositalarini favqulodda vaziyatlarga tayyorlash, fuqarolarni fuqaro muhofazasi bo'yicha o'qitish - aholini tabiiy ofatlar, avariya va fojia oqibatlaridan himoyalashga tayyorlashning asosiy tadbirlaridan biri bo'lib hisoblanadi. O'qitish fuqaro muhofazasi boshlig'i va uning shtablari ko'rsatmasi, shuningdek, fuqaro muhofazasi masalalari bilan shug'ullanuvchi hududiy hamma ishlab chiqarish yo'nalishi bo'yicha tuzilgan yuqori tashkiloti fuqaro muhofazasining ma'suliyatli boshliqlari qarori, buyrug'i asosida tashkil etiladi va olib boriladi. Bizga ma'lumki, XX asrning 60-yillaridan fuqaro mudofaasi tizimi faoliyat ko'rsatib kelgan. Uning asosiy vazifasi tinchlik davrida va urush sharoitida mamlakat aholisini yalpi qirg'in qurollari va boshqa hujum vositalaridan himoya qilish, urush sharoitida iqtisodiyot ob'ektlarining barqarorligini ta'minlash hamda halokat o'choqlarida qutqarish va tiklash ishlarini o'z vaqtida samarali amalga oshirishdan iborat edi.

So'nggi davrlarda dunyo miqyosida favqulodda vaziyatlarning sodir bo'lishi yil sayin o'sib borayotganligi kuzatilmoqda. Natijada ko'plab mamlakatlarning iqtisodiyotida salbiy o'zgarishlarga olib kelishi bilan bir qatorda insonlarning jarohatlanishi va halok bo'lishi ham yuz bermoqda.

Ma'lumotlarga qaraganda yer sharida bir kunda 450 ga yaqin turli xildagi zilzilalar kuzatiladi. So'nggi 10 yil mobaynida esa respublikada jami olti marotaba 6-8 balli zilzilalar sodir bo'lgan, natijada qurbonlar soni 16 kishini, jabrlanganlar soni 54 kishini, iqtisodiy zarar esa 84 mlrd so'mni tashkil etgan.

Seysmoprognostik monitoring ma'lumotlariga ko'ra, respublika markazi tomonidan O'zbekiston va unga chegaradosh hududlarda 2023 yil 1 yanvardan bugungi kungacha magnitudasi ( $M= 2.8-6.8$ ) bo'lgan 250 dan ortiq zilzila qayd etilgan. Qayd etilishicha, O'zbekiston geologik joylashuviga ko'ra, O'rta Yer dengizi - Osiyo seysmik kamarida joylashgan. Shu boisdan, respublika va unga chegaradosh hududlarda tez-tez zilzilalar sodir bo'lib turishi tabiiy hol sanaladi. Ulardan eng kuchlilari: Kon zilzilasi - 2011 yil (8 ball), Tuyabo'g'iz zilzilasi - 2013 yil (7 ball), Marjonbuloq zilzilasi - 2013 yil (8 ball), Kitob va Baxmal zilzilalari - 2016-2017 yillar (7 ball), Boysun zilzilasi - 2022 yil (6 ball).

Shu nuqtai nazardan, bu kabi tabiiy ofatlarning ta'sirini va oqibatlarini yumshatish uchun amalga oshiriladigan tadbirlardan biri bu - aholini tabiiy oftlar sodir bo'lganda to'g'ri harakatlanishga, o'zini va o'zгани muhofaza qilishga o'rgatishdan iboratdir.[2].

Favqulodda vaziyatlarning ta'sirini, zarar talofatini kamaytirishning muhim usullaridan biri bu aholini fuqaro muhofazasi bo'yicha tayyorlash tadbiri ekanligini jahon tajribasi ham ko'rsatib turibdi. So'ngi yillarda mamlakatimizda Favqulodda vaziyatlar vazirligi va uning viloyatlardagi boshqarmalari tomonidan respublikamizning ko'plab hududlarida aholini favqulodda vaziyatlarga tayyorlash bo'yicha o'quv taktik va qo'mondonlik mashg'ulotlari o'tkazilmoqda. Aholining favqulodda vaziyatlardan muhofazalanish sohasidagi bilim va ko'nikmalarini yana ham oshirish maqsadida qo'mondonlik-shtab, maxsus taktik va kompleks o'quv mashqlari va mashg'ulotlar muntazam o'tkaziladi. [3]

Qo'mondonlik-shtab o'quv mashqlari Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimiyati va boshqaruvi organlarida 5 yilda bir marta, shaharlar va tumanlarda 3 yilda bir marta o'tkaziladi. Taktik-maxsus o'quv mashqlari korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda 3 yilda bir marta o'tkazilib, olti soatgacha davom etadi. Kompleks o'quv mashqlari xodimlari soni 300 dan ortiq bo'lgan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda hamda 600 dan ortiq o'ringa ega bo'lgan davolash-profilaktika muassasalarida 3 yilda bir marta o'tkaziladi.

Boshqa tashkilotlarda 6 soatgacha davom etadigan mashg'ulotlar 3 yilda bir marta o'tkaziladi. Umumiy o'rta ta'lim maktablari hamda boshlang'ich o'rta va oliy ta'limi muassasalari o'quvchilari bilan mashg'ulotlar har yili o'tkaziladi. Korxonalarda ishchi-xizmatchilarni fuqaro muhofazasiga o'qitish har bir xo'jalik ob'ektining boshlig'iga yuklanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, aholini fuqaro muhofazasi bo'yicha o'qitish, favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda insonlarning harakatlanishi bo'yicha mashg'ulotlarni o'tkazish boshqa hududlarda o'tkazilishi bilan bir qatorda oliy ta'lim, maktab va maktabgacha ta'lim muassasalarida ham ko'proq tashkil etish hozirgi kunning muhim vazifalaridan biridir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. A.Xojiev, O.Normatov. Aholini fuqaro muhofazasi bo‘yicha tayyorlash davr talabi. “Zamonaviy ishlab chiqarishning ish samaradorligi va energo-resurs tejamkorligini oshirish muammolari” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami. Andijon, 2018, 303 b.
2. A.Xojiev, O.Normatov. Fuqaro muhofazasi va huquqiy asos. “Muhofaza +” jurnali 2017 yil, №3 (147) son, 19 b.
3. S.Gazinazarova, A.Xojiev Favqulodda vaziyatlarda aloqa va xabar berish. “Zilzila oqibatida yuzaga kelgan favqulodda vazitlarda aholining xavfsizligini ta’minlash” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy seminari ma’ruzalar to‘plami. Toshkent 2014,. 26-27 b.
4. <http://www.irbis.vegu.ru>.